

**TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich,**

*Namangan muhandislik-qurilish instituti*

*iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

[xulugbek1984@gmail.com](mailto:xulugbek1984@gmail.com) ORCID: 0000-0002-3589-373X

**Muradova Nazira Raxmjonovna**

*Namangan muhandislik-qurilish instituti o‘qituvchisi.*

**Anotatsiya.** Tezisda qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlar analistik hisobini kategoriyalariga ko‘ra tashkil etish haqida so‘z boradi.

**Kalitli so‘zlar:** qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlar, analistik hisob, kategoriya, hisobni tashkil etish.

**Аннотация.** В диссертации говорится об организации аналитического учета краткосрочных ценных бумаг по их категориям.

**Ключевые слова:** краткосрочные ценные бумаги, аналитический учет, категория, организация учета.

**Annotation.** The thesis talks about the organization of the analytical account of short-term securities according to their categories.

**Key words:** short-term securities, analytical account, category, account organization.

O‘zbekiston Respublikasida korxonalarni moliyaviy bozordagi faoliyatlarni xalqaro talablarga javob beradigan darajada tashkil etish va yuritishni amalga oshirishning yo‘llaridan biri – milliy moliyaviy hisob va hisobot tizimini moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga o‘tkazish hamda iqtisodi rivojlangan mamlaktlardagi tajribalardan maqsadga muvofiq foydalanish hisoblanadi. Bu fikr to‘la ma’noda moliyaviy hisob va hisobotning bir ob’yekti bo‘lgan moliyaviy aktivlar hisobiga ham tegishlidir. Mazkur tezisda, biz maqsad va vazifalardan kelib chiqib faqat moliyaviy aktivlarning bir turi bo‘lgan qisqa

muddatli qimmatli qog‘ozlar hamda ularning hisobi va hisoboti to‘g‘risida o‘z fikrlarimizni bildiramiz. Xalqaro hisob standartlariga ko‘ra korxonalardagi moliyaviy investisiyalar moliyaviy instrument tarkibiga kirib, ularda moliyaviy aktivlar nomi bilan tavsiflanadi.

Endigi navbatda milliy hisob tizimizda moliyaviy aktivlar tarkibiga kiruvchi qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlar hisobi va hisobotini hozirgi holatini ko‘rib chiqamiz. Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-sonli BHMS (Buxgalteriya hisobini milliy standartlari)) “Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnomalar”ga 2-ilovada qisqa muddatli investisiyalar hisobini hisobga oluvchi schyotlar hamda ularning yuritish tartiblari bo‘yicha quyidagi ko‘rsatmalar berilgan.

Qisqa muddatli investisiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (5800) korxonaning boshqa korxonalar qimmatli qog‘ozlariga qilingan qisqa muddatli (bir yil muddatdan ko‘p bo‘lmagan) investisiyalari (qo‘yilmalar) davlat qarzlarining foizli obligatsiyalari, boshqa korxonalarga berilgan qarzlar va boshqalarning naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun tayinlangan bo‘lib, uning tarkibi:

5810 “Qimmatli qog‘ozlar”;

5820 “Berilgan qisqa muddatli qarzlar”;

5890 “Boshqa joriy investisiyalar” schetlardan iborat.

Mazkur schyotlar bo‘yicha analitik hisob qisqa muddatli investisiyalarning turlari va ushbu qo‘yilmalar amalga oshirilgan ob’yektlar (qimmatli qog‘ozlarni sotuvchi-korxonalar, omonatlar va hokazolar) bo‘yicha yuritiladi deb aytib o‘tilgan.

Ilmiy tadqiqot jarayonida shu holat ma’lum bo‘ldiki, ushbu ko‘rsatmada ikkita kamchilik mavjud ekan.

Birinchisi, yo‘riqnomada analitik hisobni qanday tartibda yuritish bo‘yicha ko‘rsatmalar bor, lekin ular yetarlicha to‘liq emas.

Ikkinchisi, analitik hisobni qanday tartibda yuritish bo‘yicha berilgan ko‘rsatmalar asosida hisob yuritish va hisobot tuzish, pirovard natijada BHXS

(Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari) hamda MHXS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari), yoki iqtisodi rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi amaldagi talablari hamda tartiblariga mos kelmaydigan tomonlarini keltirib chiqaradi.

Bunga sabab analitik hisobni tashkil qilish va yuritish quyidagi jihatlardan kelib chiqib amalga oshirilishiga asoslanganligidir.

Qisqa muddatli investisiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (5800) da esa bu tartib:

- a) qisqa muddatli investisiyalarning turlari;
- b) qo‘yilmalar amalga oshirilgan ob’yektlar (qimmatli qog‘ozlarni sotuvchi-korxonalar, omonatlar va hokazolar) asosida amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Birinchi kamchilik natijasida, menejement ehtiyojlariga zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘liq shakllantirish imkoniyati chegaralanadi. Ayrim boshqaruv uchun ahamiyatli ma’lumotlar qo‘shimcha hisob-kitoblar asosida olinadi.

Ikkinci kamchilik natijasi birinchi kamchilikdan kelib chiqib tashqi foydalanuvchilarga bu borada moliyaviy hisobotda ochib berilishi shart bo‘lgan axborotlarni sifatsiz tarzda taqdim etilishiga sabab bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarimizni ishlab chiqdik.

5810 “Qimmatli qog‘ozlar” schyotlari bo‘yicha anlitik hisobni tashkil etish va yuritishda, dastavval qimmatli qog‘ozlarni kategoriyasiga e’tibor berish zarur, deb hisoblaymiz. Ushbu tartib xalqaro amaliyatda keng qo‘llaniladi. Lekin, yuqorida keltirib o‘tilgan me’yoriy hujjatlardagi masalaga tegishli joylarda bu jihat e’tibordan chetda qoldirilgan.

Qimmatli qog‘ozlarni kategoriyasini moliyaviy hisob va hisobotdagи o‘rni to‘g‘risida axborot berish uchun quyidagi jadval ma’lumotlarini taqdim etamiz.

Jadvaldagi qimmatli qog‘ozlarga tegishli jihatlar bu boradagi analitik hisobni tashkil etishda albatta e’tiborga olinishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu tadbir yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

Bu jadvaldagi muddati kelguncha ushlab turiladigan qimmatli qog‘ozlar kategoriyasi nima uchun qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlar tarkibiga kiritilganini asoslasak. Ma’lumki, jahon tajribasi hamda xalqaro hisob standartlariga ko‘ra muddati kelguncha ushlab turiladigan qimmatli qog‘ozlar faqat foizlar va divedendlar olishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli investisiyalarga tegishli ekanligini ko‘ramiz. Biz mazkur kategoriyani qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlar tarkibiga kiritishimiz bu boradagi hisobni quyidagi tomonlari bilan takomillashtiradi.

**Jadval**

**Qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarni kategoriyalar bo‘yicha hisobi<sup>1</sup>**

<b>Buxgalteriya ifodalash uchun</b>		<b>Moliyaviy natijalarga ta’siri bo‘yicha</b>	
<b>Kategoriyasi</b>	<b>Baholash usuli</b>	<b>Materiallashmagan daromad yoki yo‘qotish</b>	<b>Materiallashgan daromadga ta’siri</b>
Muddati kelguncha ushlab turiladigan qimmatli qog‘ozlar	Amortizatsiya-lanadigan qiymat	Tan olinmaydi yoki moliyaviy natijalarda aks ettirilmaydi (qadrsizlanish holati mustasno)	Daromad tan olinadi. Foizlar hisoblanganda. Aktiv sotilganda. Sotib olish va nominal qiymati o‘rtasidagi farq qoplanadigan vaqtgacha bo‘lgan davrda daromad yoki zarar tarzida.
Olib-sotiladigan qimmatli qog‘ozlar	Haqqoniy qiymat	Tan olinmaydi yoki moliyaviy natijalarda aks ettirilmaydi	Daromad tan olinadi. Foizlar hisoblanganda.

<sup>1</sup> Хориж тажрибаларидан фойдаланилга ҳолда муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

			Aktiv sotilganda.
Sotish uchun naqd bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar	Haqqoniy qiymat	Tan olinmaydi yoki moliyaviy natijalarda aks ettirilmaydi	Daromad tan olinadi. Foizlar hisoblanganda. Aktiv sotilganda.

Birinchidan. Milliy iqtisodiyotimizdagi korxonalar biznes faoliyatida iqtisodiyotni moliyaviy sektorida ishtirok etishi natijasida shu hisobot davrida qancha foiz yoki divedend ko‘rinishidagi daromadni yoki shu miqdordagi pul qiymatini olishi mumkinligini prognoz qila oladi. Mazkur ma’lumot rejalashtirish ishlarida o‘ta muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan. Sheriklik va nazorat maqsadidagi hamkorlikni qay tarzda moliyaviy jihatdan davom ettirish yoki to‘xtatish borasida biznes qarorlarni qabul qilish masalalari uchun mazkur tartibdagi ma’lumotlar zarur ekan.

Olib-sotiladigan qimmatli qog‘ozlar esa qisqa muddatda foizlar keltirishi mumkin bo‘lgan hamda vaziyati kelganda baholar farqidan daromad olish uchun sotib yuboriladigan qimmatli qog‘ozlardan tashkil topadi.

Sotish uchun naqd bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar esa yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan guruhlarga kirmaydigan qimmatli qog‘ozlardir.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib 5810 “Qimmatli qog‘ozlar” schyotlari bo‘yicha analitik hisobni tashkil etish va yuritishni quyidagi tartibda amalga oshirilishini taklif qilamiz.

1. Kategoriya ko‘ra (Kategoriylar jadvalda berilgan).
2. Turlariga ko‘ra (aksiyalar, davlat qarzlarining foizli obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlar).
3. Qo‘yilmalar amalga oshirilgan ob’yektlar (qimmatli qog‘ozlarni sotuvchi-korxonalar, omonatlar va hokazolar).
4. Boshqa zarur belgilariga ko‘ra (Bir donasini sotib olish bahosi, bir donasini nominal qiymati, jami miqdori, dona, jami qiymati sotib olish bahosida hamda nominal qiymatida va hokazo).

Mazkur taklif etilgan tartib quyidagi ijobjiy jihatlarga ega.

Korxonadagi ichki foydalanuvchilar uchun qimmatli qog‘ozlarga oid ma’lumotlar, ham har bir turdagи qimmatli qog‘oz bo‘yicha alohida, ham qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha umumlashgan tarzda to‘liq o‘z vaqtida shakllantiriladi.

Tashqi foydalanuvchilar uchun hamkorlik doirasidagi manfaatlar e’tiborga olinib taqdim etuvchi korxona tomonidan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha shakllantirilgan axborotlar moliyaviy hisobotni tushuntirishlar qismida qo‘shimcha hisob-kitoblarsiz, o‘z vaqtida sifatli taqdim etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2020 yil 24 fevral, №PQ-4611: “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”
2. 32-sonli BHXS “Moliyaviy instrumentlar: axborotlarni taqdim etish”
3. Donald E. Kieso, Jtrry J. Weygandt, Terry D. Warfield. INTERMEDIATE ACCOUNTING. John Wiley & Sons, USA. 2004. 1331 r.
4. B.Xakimov Moliyaviy hisobotning konseptual assosi. Bozor, Pul va Kredit. //2010. №09. 52-55 b.
5. Lubis, S. N., Menglikulov, B., Shichiyakh, R., Farrux, Q., Ugli, B. O., Karimbaevna, T. M., ... & Jasur, S. (2024). Temporal and spatial dynamics of bovine spongiform encephalopathy prevalence in Akmola Province, Kazakhstan: Implications for disease management and control. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 22(2), 431-442.
6. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
7. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(4), 56-62.
8. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.

9. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.
10. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
11. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
12. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12(11), 38-47.
13. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
14. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. *Экономика и социум*, (1 (68)), 102-105.
15. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalari qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent—2023*.
16. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 109-115.
17. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.
18. Xolmirzayev, U. B., & Xakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA

OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 96-98.

19. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO ‘NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 17-21.
20. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
21. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
22. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, III. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.
23. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.
24. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. *Мировая наука*, (1 (22)), 299-302.
25. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
26. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). Improving Cash Accounting And Analysis On The Basis Of International Experiences. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.

27. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, 100.
28. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debtor debt debt analysis. *Мировая наука*, (1 (34)), 100-105.
29. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.
30. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. *Вопросы экономики и управления*, (5), 182-184.
31. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). Positive aspects of the cash method in small businesses in a pandemic environment. *American Journal of Economics and Business Management*, 4(3), 1-8.
32. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). Some Issues of Improving Securities Accounting. In *Conference Zone* (pp. 129-132).
33. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 11, 34-39.
34. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум*, (2 (45)), 34-36.
35. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2107-2114.
36. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 3695-3702.

37. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 203-209.
38. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, 1(3), 42-50.
39. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. *Questions of Economics and Management*, 5(7), 6.
40. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.
41. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
42. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
43. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. *Экономика и социум*, (1 (68)), 48-52.
44. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). The role of accounting in small business management. *Интернаука*, (21-5), 20-22.
45. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. *Интернаука*, (21-5), 9-11.
46. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2019). Profits of housekeeping and its development. *TRANS Asian Research Journals*, 8(4).

47. Xolmirzaev, U. A., Juraev, E., & Jamgirova, G. I. (2021). APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. *Интернаука*, (21-5), 17-19.